


Xoldor Vulqon
Badiiy adabiyot bo'yicha xalqaro "Naslediye" mukofotining nomzodi



Yapon she'riyatidan
Япон шеъриятидан



Taneda Santoka xaykulari

(1882 - 1940)

Хайкуларни рус тилидан ўзбекчага
Холдор Вулкон таржима килган.

Xaykularni rus tilidan o'zbekchaga Xoldor Vulqon tarjima qilgan



**Yaxshilab chaynash kerak,
Hafsala bilan.
Guruch bu guruchda...**

**Sake ichib
Chirildoqlar bilan
Uxlab qolibman.**

**Ayozli qish kechasi.
Sovuq izg’irin.
Men qaerda tunayman endi?..**

**Qayoqqadir shoshar
Sovuq bulutlar
Cheksiz osmonda...**

**Dalada izg’irin.
Toshlarni teraman
Kuzgi shamolda...**

**Qanday ivib ketdima!
Boyagina huv anavi,
Bulutlardan yoqqan yomg‘irda!..**

**Uzuliksiz kovshanaman.
Mening ovqatim -
Guruch kepagi.**

**Hoy ,noinsof chigirtka!
Xaltadagi guruch o‘zi oz!
Ertagacha yetsin...**

**Yolg‘iz kapalak pildirab
Uchib aylanyapti.
Hamma yoqda tosh.**

**Oqshomda uyga qaytayapman
Qor ustini qoplab borar qor.
Taraladi sukunat xidi.**

May oqshomi.

**Baqalar qurillashi aro
Poezd shovqini.**

**Ayvonda o'ltirib
Tongi shabbodada
Uembosi qiyomin yeymān . . .**

**Yolg‘iz va sokin
Jim - jit o‘ngirlarning
Shaffof tonglari . . .**

**Iyu jalasi
Toshib ketdimi deymanda ,
Samo to‘g‘oni . . .**

**Xotiralar uchib kelar
Qaydandir birdan
Oppoq yuvosh kapalak bilan . . .**

Atrof tog‘ o‘rmoni ,

**Boshim ostida tosh .
Va bulutlar kuzgi osmonda . . .**

**Yo‘lda kasal bo‘lib qoldim ,
Mana endi tungi zulmatda ,
Tinglayapman sel shovqinini . . .**

**Qorong‘i tushdi
Endi oydin tog‘lardan
Axtaraman tunamoqqa joy**

**Naxot shu kul qolgan bo‘Isa
Yoqib yuborilgan kundaligimdan ?...**

**Tong pallasi yirik tomchilar
Nog‘ora qilib chalar
Kulbaning tomin .**

Burga chaqib uxlatmayapti . . .

Yulduz to‘la bepoyon osmon . . .

**Dengizlarga tikilganimcha
Soxildagi o‘tloqda
Bo‘shanaman , xojat qilaman**

**Bolakaylar o‘ynab yuribdi
Qabrlar aro . . .
Oqshom qo‘ng‘irog‘i jaranglar . . .**

Oyoqlarim yurmay qo‘ydi . . .
Kuzgi shamollarda
Ot sug‘oraman . . .

Cho‘chqa menga tikildi ,
Qiziqishdan ochilgan og‘ziga
Kirmoqda kuzgi shamol .

**Kun bo‘yi yomg‘ir yog‘di .
Men o‘yladim xasratga cho‘mib ,
Olislarda qolgan Vatanimni .**

**Buncha ham mazali
Bo‘lmasa guruch .
Kavshanaman bir o‘zim o‘ychan .**

**Oftob qizdirmoqda
Ustarada qirilgan
Taqir boshimni**

